Izoh: Operatsiya "Temir musht" deb nomlangan. Muallif Ilhom Alievning "Bizning mushtimiz nafaqat dushmanga zarba beradi. Mushtimiz – birligimiz, xalqimiz birligi..." degan so'zlaridan ilhomlangan.

Manba:

1. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Железный_кулак_\(памятник\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Железный_кулак_(памятник))

2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Вторая_карабахская_война

3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Железный_Кулак

50. O'tgan asr 30-yillarida yaratilgan BU QISSA qaxramoni yalqovligi bilan dong chiqargan Mamajon bo'lib, asar davomida jamiyat uchun huddi O'LIKDEK bo'lgan insonning, qayta tarbiyalanib farovon HAYOTGA QAYTISHI tasvirlangan.

Javob: "Tirilgan murda"

Qabul: Aniq javob

Qabul emas: Tirik murda – bu boshqa asar.

Izoh: Ga'fur G'ulomning qissasi

Manba:

<https://cyberleninka.ru/article/n/g-g-ulomning-tirilgan-murda-qissasidagi-folklor-adabiyot-an-alari/viewer>

2. Qo'sh undosh.

10. Portugal tilida “sherlar tog'i” deb ayting.

Javob: Syerre-Leone.

20. Dominik Engrning 1801-yilda chizilgan kartinasida UNING oldiga kelgan Agamennonning elchilari tasvirlangan. **U kim?**

Javob: Axilles.

30. Ushbu tuman nomi ko'pchilik o'ylagandek sondan emas, balki yengil shamol ma'nosini ifodalovchi so'zdan kelib chiqqan ekan. **Qaysi tuman?**

Javob: Ellikqal'a (50 ta qal'a emas, Yellikqal'a ekan).

40. **Javob 2 so'zdan iborat.** Filmida U deganda Yodgordan qochib qishloqqa qaytgan Asal ham, Yodgorning otasi yoqtirib qolgan Halima ham nazarda tutilgan. **Uni ayting.**

Javob: Vodillik kelin.

50. Uning devorga skotchlangan banan installyatsiyasi yaqinda 6,2 mln dollarga sotildi. **U kim?**

Javob: Mauritsio Kattelan.

Manba:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Sierra_Leone

2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Ахилл>

3. E.Do'simov, X.Egamov “Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati”.

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Vodillik_kelin

5. <https://kun.uz/news/2024/11/21/devorga-skotchlangan-banan-62-mln-dollarga-sotildi>

3. Devor

10. Uning “Devor” nomli qo'shig'ida hovlini bo'lib olganidan afsulanayotgan aka-ukaning bir-biri tomon borishiga devor to'sqinlik qilayotgani aytiladi. **Kim u?**

Javob: Alisher Fayz.

20. Efraim Moshe Liliennning “Sharqiy devor” kartinasida UNING g'arbiy qismida turgan bir guruh ayollar tasvirlangan. **UNI ayting.**

Javob: Yig'i devori (Ismidan rassomning yahudiy ekanini tushunish mumkin).

30. Kameraga to'g'ridan-to'g'ri uzoq vaqt tikilib turish orqali ovozsiz film qahramonlari BU ISHNI QILISHGAN. **Nima ish?**

Javob: To'rtinchi devorni buzish.

40. Olimlarning fikricha, U Xitoydan kelgan sayyohlardan Buyuk devor haqida eshitganidan keyin 122-128-yillarda devor qurdiradi. **U kim?**

Javob: [Rim imperatori] Adrian.

50. 1918-yilda olingan Amerika komedik filmida kambag'al oila farzandi boy oila qizini sevib qoladi. Biroq, qizning otasi yigitga u bilan qizi o'rtasida yaxshigina iqtisodiy tafovut borligini aytib, to'yga qarshilik qiladi. **Ushbu film qanday nomlangan?**

Javob: Oltin devor.

Manba:

1. <https://uztext.uz/719-alisher-fayz-devor.html>

2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Стена_Плача

3. https://en.wikipedia.org/wiki/Fourth_wall

4. https://en.wikipedia.org/wiki/Hadrian%27s_Wall

5. https://www.imdb.com/title/tt0009121/plotsummary/?ref_=tt_ov_pl

4. Soyabon

10. Toshkentdagi uy hizmatchilari va enagalar topib berish bilan shug'ullanuvchi ma'suliyati cheklangan jamiyat USHBU PERSONAJ nomi bilan bir xil atalgan. **Qaysi personaj?**

Javob: Meri Poppins.

20. 2018-yilgi futbol bo'yicha jahon chempionati finalidan keyingi taqdirlash marosimida faqat Ugina yomg'ir ostida soyabon bilan turgani tanqidlarga sabab bo'lgan. **U kim?**

Javob: Vladimir Putin.

30. 1875-yil, kunlarning birida Kamilla Donsye eri va o'g'li bilan toza havoda sayr qilgani chiqadi. **Uning eri kim edi?**

Javob: Klod Mone (Ushbu sayr Monening "Sayr. Soyabon tutgan xonim" kartinasida tasvirlangan).

40. Ularni o'tgan asr 30-yillarida Amerikadagi tiki-barlar tarmog'i egasi Treyder Vik o'ylab topgan. **Ularni ayting.**

Javob: Kokteyl soyabonchalari.

50. 1978-yilda yozuvchi Georgiy Markov zaharli soyabon yordamida o'ldiriladi. **Ushbu yozuvchi qayerlik edi?**

Javob: Bolgariya. (Shundan keyin zaharli ukol bilan jihozlangan soyabonlar "Bolgar soyaboni" nomini olgan)

Manba:

1. <https://top.uz/company/meri-poppins-ooo-agentstvo>
2. <https://www.championat.com/football/article-3490931-vo-vremja-chempionat-a-mira-zont-raskryli-tolko-nad-putinym---foto.html>
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Woman_with_a_Parasol_%E2%80%93_Made_me_Monet_and_Her_Son
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Зонтик_для_коктейля
5. <https://www.dw.com/ru/smertelnyj-ukol-zontikom-ili-kak-spion-ubil-dissident/a/a-65020426>

“D” – GURUH

OCHIQ

1. YAXSHI, YOMON, YOVUZ.

2. 12

3. QO'SH UNLI.

4. SHAXMAT

1. Yaxshi, yomon, yovuz.

10. Yilning naqadar muvaffaqiyatsiz kelganini ifodalash uchun dizaynerlar shunchaki USHBU KOMPANIYA nomidagi birinchi 3 ta harfni boshqa 2 tasiga o'zgartirib qo'yishgan.

Qaysi kompaniya?

Javob: Goodyear (“Badyear” deb o'zgartirishgan).

20. Maqollardan birida U – yovdan yomon hamda boshga balo ekani aytiladi va agar sizda u bo'lsa, boshqa uy axtarish tavsiya qilinadi. **UNI ayting.**

Javob: Yomon qo'shni.

30. 1512-yilda Qrimdan Konstantinopolga qaytgach U taxtga davogar bo'lishi mumkin bo'lgan barcha qarindoshlarini qatl qildiradi. **Kim u?**

Javob: Sulton Salim I (Qabul: Sulton Salim “Yovuz”. Shu voqeadan keyin u “Yovuz” nomini olgan)

40. Kunlarning birida uni ko'chada to'xtatgan ichki ishlar hodimi shoshib qolib “Iplos” deb murojaat qilib deyar ekan. **Kim u?**

Javob: [Qiziqchi] Abdurahmon Rasvo.

50. “Yaxshi, yomon va men” avtobiografiyasi aynan USHBU AKTYORga tegishli.

Qaysi aktyor?

Javob: Ilay Uollok (Qabul: Ilay Uollox, Eli Wallach. “Yovuz” rolini o'ynagan aktyor)

Manba:

1. <http://www.businesspundit.com/after-the-crisis-a-parody-of-15-corporate-logos/>

2. <https://sirlar.uz/qoshnilar-va-qoshnichilik-haqida-maqollar-2/>

3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Селим_I

4. https://youtu.be/wOcLxUQ_-Uc?si=Bp6Q46T2BoBR6bKM&t=1433

5. https://books.google.co.uz/books?id=zaGwScEYCDUC&printsec=frontcover&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false

2. 12

10. O'tgan asr 50-yillarida yapon politsiyachilari fotopistoletdan foydalana boshlashgan. **Uning gilzalari nima bilan to'ldirilardi?**

Javob: Magniy (12-element).

20. Ularning eng so'nggisi - Muhammad ibn al-Xasan al-Mahdiy. **Ular kim?**

Javob: 12 imom.

30. Eski turkman kalendarida 12-oy davlatning tashqi siyosatiga mos ravishda SHUNDAY nomlangan. **Qanday?**

Javob: Be'taraflik (Qabul: Neytralitet).

40. Bir animatsion serial epizodlaridan birida har bir qo'li va oyoqlarida 6 tadan barmoq bo'lgan o'zga sayyoraliklar haqida so'z boradi. Shu tufayli bu mavjudotlarning UNDAN foydalanishi ajablanarli emas. **UNI ayting.**

Javob: 12 lik sanoq sistemasi.

50. U milodiy 2-asrgacha Rim ommaviy huquqining asosiy manbayi bo'lib xizmat qilgan. **Uni ayting.**

Javob: 12 jadval qonunlari (Qabul: 12 disk qonunlari/Законы двенадцати таблиц).

Manba:

1. http://www.camerapedia.org/wiki/Doryu_2-16
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Мухаммад_ибн_аль-Хасан_аль-Махди
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Туркменский_календарь
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Duodecimal>
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Двенадцать_таблиц

3. Qo'sh unli.

10. 2014-yilda USHBU SHAHARDA bo'lib o'tgan hokkey bo'yicha yoshlar o'rtasidagi Yevropa chempionatida fransuzlar - Angliya va Belgiya tomonidan mag'lub etilgan. **Qaysi shahar?**

Javob: Vaterloo (Vaterloodagi navbatdagi mag'lubiyat).

20. Ushbu ilovaning logotipida kitob hamda bir-biriga teskari qaragan 2 ta a harfini ko'rish mumkin. **Qaysi ilova?**

Javob: Mutolaa.

30. Lotin tilida "bo'shliq" deb ayting.

Javob: Vakuum.

40. 2002-yil 16-noyabrda USHBU SHAHARda Esher muzeyi ochilgan. **Qaysi shahar?**

Javob: Gaaga (Moris Esher – gollard rassomi).

50. Elza Kaysa Myakiniyemi - Saynatsalo shahar ratushasi yoki Yuvyaskulya universiteti kabilarning qurilishiga rahbarlik qilgan. 1952-yilda Elza **kimga turmushga chiqqan?**

Javob: Alvar Aalto (Nomlar skandinavlariga xos. Ayolning arxitektori ekanini tushundingiz degan umiddaman)

Manba:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/2014_Men%27s_EuroHockey_Junior_Championship
2. <https://mutolaa.com/uz>
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Бакум>
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Музей_Эшера
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Elisa_Aalto

4. Shaxmat.

10. Xalqaro shaxmat kuni har yili 20-iyulda nishonlanadi. Chunki, 1924-yil 20-iyulda UNGA asos solingan. **Uni ayting.**

Javob: FIDE (Qabul: Xalqaro shaxmat federatsiyasi).

20. Uni ilk bor Abu Bakr ar-Roziy qo'llagani aytiladi. **U nima?**

Javob: Shaxmat terapiya (Qabul: Ma'nodosh javoblar).

30. Shaxmatning versiyalaridan birida ot va fil figuralari xususiyatlarini o'zida birlashtirgan shaxmat figurasi qo'shiladi. **Ushbu figuraga qaysi Rim ilohi nomi berilgan?**

Javob: Yanus.

40. Marvelning USHBU PERSONAJI o'z kinetik energiyasi bilan dushmanlarining oyog'idan chalishga juda usta edi. **Qaysi personaj?**

Javob: Gambit.

50. Garchi hech kim kutmagan bo'lsa-da, Yangi Zelandiyalik rejissyor Jeyms Napyer Robertson tomonidan 2014-yilda olingan shaxmat haqidagi film "New Zealand Film Awards" ("Nyu-Zeland film evords") mukofotiga ega chiqqan. **Filmning 2 so'zdan iborat nomini ayting?**

Javob: Qora ot

(Hech kim kutmagan holda g'alabaga ega chiqqan ishtirokchilarga nisbatan ham "Qora ot" termini ishlatiladi).

Manba:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/International_Chess_Day
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Chess_therapy
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Janus_Chess
4. [https://en.wikipedia.org/wiki/Gambit_\(Marvel_Comics\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Gambit_(Marvel_Comics))
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/The_Dark_Horse_\(2014_film\)](https://en.wikipedia.org/wiki/The_Dark_Horse_(2014_film))

YARIM OCHIQ

1. REMEYK.

2. JAVOBDA 3 TA BIR XIL UNDOSH

3. NOMINALGA QARAYMIZ.

4. MAMLAKATLAR SHIORI

1. Remeyk.

10. Qozoq kinoijodkorlari tomonidan suratga olingan “Robot ayol” filmi 1990-yilda suratga olingan USHBU FILMning remeyki hisoblanadi. **Qaysi film?**

Javob: Temir xotin.

20. Xotirasi tezda yoʻqolib qoladigan personaj haqidagi “Gadjini” nomli hind filmi 2000-yilda suratga olingan USHBU FILMning remeyki hisoblanadi. **Qaysi film?**

Javob: Esla (Memento).

30. Turklarning “Hekimoglu” nomli seriali USHBU MASHHUR SERIAL remeyki ekan. **Qaysi serial?**

Javob: Doktor Xaus (Bosh qahramon “Hakimoglu” – shifokorlikka ishora edi).

40. 2007-yilda suratga olingan USHBU FILMning remeyki va davomiga koʻra, Yevgeniy Lukashin baribir Nadejda Shevelevaga uylanmagan ekan. **Qaysi film?**

Javob: Taqdir hazili yoki qushdek yengil boʻling. (Yevgeniy – Jenya, Nadejda esa – Nadya).

50. 1998-yilda Martin Brest tomonidan suratga olingan USHBU FILM “Oʻlim dam olishga chiqadi” filmining remeyki ekan. **Qaysi film?**

Javob: Tanishing, Jo Blek.

Manba:

1. <https://www.kinopoisk.ru/film/5260002/>

2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Гаджини>

3. [https://en.wikipedia.org/wiki/Hekimo%C4%9Flu_\(TV_series\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Hekimo%C4%9Flu_(TV_series))

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Ирония_судьбы._Продолжение

5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Знакомьтесь,_Джо_Блэк

2. Javobda 3 ta bir xil undosh

10. “Kichkina shahzoda” ertagida u sayyora uchun katta xavf tugʻdirardi.

Javob: Baobab

20. Bir filmning gobliddin tarjimasida u 60 mln yevro evaziga “Paxtakor”ga oʻtgani aytiladi. Uning familiyasini ayting.

Javob: Sisse

30. Xonanda Shahzodaning “qizaloq” taronasi, Toshkentda “nihollar” xususiy bogʻchasi bor. Yuqorida qaysi soʻz ikki marta tushirib qoldirildi?

Javob: Jajji

40. Istanbuldagi bu mikrorayon ulgurji savdo qiluvchilar orasida juda mashhur.

Javob: Laleli

50. Robert Kennedi haqidagi film nomi turli kasta va turli din vakili boʻlgan yoshlarning sevgisi haqidagi hind filmi nomi bilan bir xil. Film nomini toping.

Javob: Bobbi

Manba: 2. <https://m.ok.ru/video/44736121509>

3.1. <https://www.youtube.com/watch?v=vzo4ZD4eRwo>

3.2. <https://www.goldenpages.uz/uz/company/?Id=81763>

4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Лалели>

5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Бобби>

3. Nominalga qaraymiz.

10. U odatda qalay bilan assotsiatsiya qilinadi. **Uni ayting.**

Javob: Nikohning 10 yillik yubileyi.

20. 2022-yilgi videomurojaatida Vladimir Zelenskiy bir necha bor USHBU XALQARO FORUM nomini bittaga kamaytirib aytib o'tgan. **Qaysi forum?**

Javob: G20 (Qabul: Katta yigirmalik. "G19" deb gapirgan).

30. 1982-yilda AQSh zarb qilingan mis bilan qoplangan pennilarning asosiy qismi USHBU MODDAdan tayyorlangani uchun zaharlanish xavfi kuchli bo'lgan. **Qaysi modda?**

Javob: Rux (Цинк, Davriy jadvaldagi 30-element).

40. USHBU DAVLAT bayrog'ida tasvirlangan quyoshdan chiqayotgan nurlar soni 40 ta bo'lib, ular davlat xalqini tashkil etiluvchi qabilalar sonini ifodalaydi. **Qaysi davlat?**

Javob: Qirg'iziston.

50. Germaniya futbol ligasi reglamentiga ko'ra, Bundesligada ishtirok etmoqchi bo'lgan klub litsenziya olish uchun to'liq yoki qisman o'z jamoasiga egalik qilishi kerak. Ushbu qoida norasmiy tarzda SHUNDAY ataladi. **Qanday?**

Javob: 50+1 (Aksiyaning shu qismi egalikni belgilaydi).

Manba:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Годовщины_свадьбы

2. <https://en.wikipedia.org/wiki/G20>

3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Zinc>

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Флаг_Кыргыстана

5. https://en.wikipedia.org/wiki/50%2B1_rule

4. Mamlakatlar shiori

10. Yevropadagi ushbu mamlakatning shiori "Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun". Qaysi mamlakat?

Javob: Shveytsariya

20. Janubiy Amerikadagi ushbu davlat bayrog'ining orqa tomonida mamlakat shiori "Tinchlik va adolat" so'zlari yozilgan. Qaysi davlat?

Javob: Paragvay

Izoh: Paragvay bayroqning oldi va orqa tomonida turli emblemalar va turli yozuvlar bo'lgan yagona davlat.

30. Ushbu anklav davlatning shiori "Tinchlik, Yomg'ir, Taraqqiyot". Qaysi mamlakat?

Javob: Lesoto

40. Arabiston yarimorolidagi bu davlatning shiori "Alloh, Millat, Prezident". Qaysi mamlakat?

Javob: BAA

50. Karib havzasidagi ushbu mamlakatning shiori "Vatan yoki o'lim, biz g'alaba qozonamiz". Qaysi davlat?

Javob: Kuba

Manba: https://ru.wikipedia.org/wiki/Список_национальных_девизов

YOPIQ MAVZU

1. QILICH

2. BAHOR, YOZ, KUZ, QISH VA YANA BAHOR.

3. STADIONLAR

4. INITSIAL S... S...

1. Qilich.

10. Basovning BU filmidagi asosiy voqealar sovet razvedchiklarning taqdiri haqida bayon qiladi. Film nomidagi “va” bog’lovchisini hisobga olmasa bir xil harf bilan boshlanadi. Filmning nomi nima?

Javob: qilich va qalqon

Manba: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Щит_и_меч_\(фильм\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Щит_и_меч_(фильм))

20. O‘zbek maqollaridan biriga ko‘ra, uning ishini qilich qila olmasligi aytiladi. Uni topishingizda o‘zbek she‘riyatidagi mashhur misralar yordam berishi mumkin.

Javob: Qalam.

Izoh: qalamning ishini qilich qilolmas. Temur tig‘i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher degan misra yodingizda bo‘lsa kerak

<https://ziyouz.uz/hikmatlar/ozbek-xalq-maqollari/qudrat-va-objizlik-haqida-maqollar/>

30. Kventin Tarantinoning 2003-2004-yilgi ijodida uning narxi 1 mln dollarga baholangan. Uni atoqli ot bilan ayting.

Javob: Xattori Xanzo qilichi

https://ru.wikipedia.org/wiki/ubit_billa#xattori_xanzo

40. Javob unlilari bir xil so‘z. 1943-yili xorvatiyada asosan bosniyalik musulmonlardan tashkil topgan ss tarkibidagi harbiy otryad aynan shunday nom olgan edi.

Javob: Xanjar

[https://ru.wikipedia.org/wiki/13-ya_gornopexotnaya_diviziya_ss_“xandjar”_\(1-ya_xorvatskaya\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/13-ya_gornopexotnaya_diviziya_ss_“xandjar”_(1-ya_xorvatskaya))

50. Chandraxas ya‘ni “oy hanjari” nomli qilich hind eposidagi ushbu qaxramonga tegishli edi.

Javob: Ravan

https://ru.wikipedia.org/wiki/mechi_s_lichnym_imenem

2. Bahor, yoz, kuz, qish va yana bahor.

10. Milan Kunderaning 1984-yilda yozilgan asari asar yozilishidan 16 yil oldin yuz bergan USHBU VOQEA haqida hikoya qiladi. **Qaysi voqea?**

Javob: Praga bahori (Kundera -chex yozuvchisi)

20. 2000-2006-yillarda rejissyor Yun Sok Xo “Tuganmas sevgi” nomli 4 ta koreys doramasidan iborat o‘ziga xos dramalar to‘plamini yaratgan. **Undagi uchinchi drama qanday nomlanardi?**

Javob: Yoz ifori (Bu o‘sha mashxur “Kuz ertagi”, “Qish sonatasi”, “Bahor valsi” va “Yoz ifori”dan iborat dramalar)

30. Qiziq tomoni, Daniya parranda fermalariga kuzda BU ISHNI QILISH tavsiya etilmaskan. **Nima qilish?**

Javob: Jo‘jalarni sanash (Bizda esa aksincha).

40. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 1877-yil butun yil davomida “El-Nino” hodisasi sabab iliq harorat saqlanib turgan. Shu tufayli mutaxassislar 1877-yilni mashxur voqeadan farqli tarzda SHUNDAY atashadi. **Qanday?**

Javob: Qishsiz yil (1816-yil esa “Yozsiz yil” deyiladi).

50. **Qabul ism familiya.** Halokatga bag‘ishlab Serbiyada o‘rnatilgan memorialda USHBU AYOLning ismi ham 10 160 metr haqida ham eslab o‘tilmagan. **USHBU AYOL kim?**

Javob: Vesna Vulovich.

Manba:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/The_Unbearable_Lightness_of_Being
2. [https://en.wikipedia.org/wiki/Endless_Love_\(2000_TV_series\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Endless_Love_(2000_TV_series))
3. https://www.booksite.ru/localtxt/fre/zer/frezer_d/fol/klor/folklor_v_vethom/in dex.htm
4. https://www.dnr.state.mn.us/climate/journal/1877_1878_winter.html
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Вулович,_Весна

3. Stadionlar

10. Alpomish o'yingohi Termiz shahridan tashqari Surxondaryo viloyatidagi bu tumanda ham mavjud. Qaysi tumanda?

Javob: Boysun

<https://xs.uz/uzkr/post/bojsun-bahori-festivali-20-ta-davlatdan-ishtirokchilarni-kutmoq da>

20. Afina shahri chekkasida joylashgan spiros luis stadioni gretsiya milliy terma jamoasining uy stadioni hisoblanadi.

Savol: stadionni yana qanday nomlashadi?

Javob: Olimpiya stadioni

[https://ru.wikipedia.org/wiki/olimpiyskiy_stadion_\(afiny\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/olimpiyskiy_stadion_(afiny))

30. So'zma so'z tarjimai "ajoyib marmar" ma'nosini beruvchi so'z bilan ham ataladigan bu stadionda antik davrdagi musobaqalar bilan birga zamonaviy olimpiadaning musobaqalari ham o'tkazilgan. Qaysi stadion?

Javob: Panatinaikós

Qabul: kalimármaro.

Izoh: stadion oq marmardan barpo etilgan»

[https://ru.wikipedia.org/wiki/panatinaikos_\(stadion\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/panatinaikos_(stadion))

40. Aqshning sakramento shahridagi golden 1 center stadionida suvdan oqilona foydalanish evaziga suvni 45 foiz tejashga erishgan. Stadionni rekonstruksi qilish davomida chiqindiga chiqqan 99 foiz qurilish materiallari qayta ishlangan. Stadion haqidagi 2020-yilgi ma'lumotlar orasida stadion 100 foizlik ko'rsatkich bilan dunyoda yagona stadion ekani aytiladi. Bu qanday ko'rsatkich?

Javob: o'zini 100 foiz quyosh energiyasi bilan ta'minlaydi

<https://www.sports.ru/tribuna/blogs/cleangames/2812146.html>

50. Bu animatsion filmda sportni sevuvchi o'zbek kolxozchilari faoliyatiga sport salbiy ta'sir ko'rsatmasligini, aksincha mehnat unumdorligini oshirishi haqida hikoya qilinadi. Premyerasi 1956-yili bo'lib o'tgan Zagid Sabitovning ushbu filmi nomini toping.

Javob: Stadionda uchrashamiz

[https://ru.wikipedia.org/wiki/vstretimsya_na_stadione_\(film\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/vstretimsya_na_stadione_(film))

4. Initsial S... S...

10. 2003-yilda ochilgan va 50 300 kishi sig'adigan "Joze Alvalade" U hisoblanadi. Uni ayting.

Javob: Sporting stadioni.

20. Har yili aynan shu sanada Xalqaro savodxonlik kuni bayrami nishonlanadi. Qaysi sana?

Javob: Sakkizinchi sentyabr.

30. Muxlislarning fikricha, USHBU ERKAK PERSONAJ Adel Gyugo sindromiga chalingan ekan. Qaysi personaj?

Javob: Severus Sneypp

Qabul: Severus Snegg.

Adel Gyugo sindromi – javobsiz sevgidan uzoq muddat davomida qattiq azob chekish).

40. 14-asrda yashagan USHBU INSON boshlang'ich ta'limni o'zlashtirib bo'lgach tahsilni davom ettirish uchun Oltin O'rda poytaxtiga borgan ekan. **Qaysi inson?**

Javob: Sayfi Saroyi

Izoh: Oltin O'rdaning markaziy shahri – Saroy deb ataladi.

50. Yevro-2012 arafasida maydondagi himoyada ham hujumda ham tezkorlik bilan paydo bo'lishi orqali terma jamoa murabbiylari e'tiborini qozongan Alvaro Negredo matbuotda SHUNDAY NOM bilan tez-tez tilga olinardi. **Qanday nom?**

Javob: Sevilyalik sartarosh

Izoh: Negredo o'sha vaqtda "Sevilya"da o'ynardi. Figaro u yoqda, Figaro bu yoqda.

Manba:

1. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Жозе_Алваладе_\(стадион\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Жозе_Алваладе_(стадион))
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_savodxonlik_kuni
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Северус_Снегг
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayfi_Saroyi
5. https://football24.ua/ru/sevilskiy_cirjulnik_vybiraj_trio_samyh_jeffektnyh_golov_alvaro_negredo_n119103/

“E” – GURUH

OCHIQ

1. INITIAL B.P.

2. BIR HARFDAN BOSHLANUVCHI 2 SO’Z

3. FILMNI TOPING

4. DAVLAT NOMLARI KELIB CHIQISH TARIXI

1. Initial B.P.

10. Ushbu savolni eshitmasdan turib, qoralamang. U Sovet ittifoqida hukumat va hamkasblari tomonidan tazyiqqa uchragach Nobel mukofotidan voz kechishga majbur bo’lgan. U kim?

Javob: Boris Pasternak

20. De-yure Sukre, de-fakto La-Pas U hisoblanadi. Uni ayting.

Javob: Boliviya poytaxti

30. Mustaqil O’zbekistonda birinchi U Bo’ritosh Mustafoyev bo’lgan. Uni ayting.

Javob: Bosh prokuror

40. Uning chegaralari doimiy ravishda o’zgarib turgan. Sovuq urushning so’nggi yillarida Xitoy va AQSh munosabatlari yaxshilangach, bu termin o’z ahamiyatini yo’qota boshladi. Qaysi termin haqida gap ketmoqda?

Javob: Bambuk parda

50. 2013—2024-yillarda Unga Shirin Sharmin Chaudxari rahbarlik qilgan. Uni toping.

Javob: Bangladesh parlamenti

Manba:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Пастернак,_Борис_Леонидович

2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Боливия>

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bo%CA%BBritosh_Mustafoyev

4. https://en.wikipedia.org/wiki/Bamboo_curtain

5. https://en.wikipedia.org/wiki/Shirin_Sharmin_Chaudhury

2. Bir harfdan boshlanuvchi 2 so’z

10. ULARning eng mashxurlari sifatida Saidjamshid Jafarov, Abbos Atoev yoki Shaxram G’iyosovni sanash mumkin. **ULARni ayting?**

Javob: Buxorolik bokschilar.

20. Boris Kustodiyevning “Go’zal xonim” yoki “Choy sotuvchi xonim” kabi kartinalari qahramonlari – to’lachadan kelgan ayollar. Shu sababli Kustodiyevni SHUNDAY atashadi. **Qanday?**

Javob: Rus Rubensi.

30. Turli yillarda chiqarilgan USHBU QIYMATDAGI BANKNOTA old tomonida Mamed Emin Rasulzoda yoki neft minorasi tasvirini ko’rish mumkin. **Qanday qiymatli banknota ekanligini aniq ayting.**

Javob: Ming manat.

40. Gyunter Grassga tegishli UNDA adabiyot portlatuvchi kuchga ega ekanligi aytilgan va “Davomi bor...” deb nomlangandi. **Uni ayting.**

Javob: Nobel nutqi.

50. UNING muallifi Sayful Baxri hisoblanadi. Shuningdek, U haqidagi maqolada Pyer Jan de Beranje ismli kompozitor ham eslab o’tilgan. **Uni ayting.**

Javob: Malayziya madhiyasi (Malayziya – uzoq yillar davomida Fransiya mustamlakasi bo’lgan).

Manba:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Атоев,_Аббос_Абдураззокович

https://ru.wikipedia.org/wiki/Гиясов,_Шахрам_Джамшедович

- https://uz.wikipedia.org/wiki/Saidjamshid_Jafarov
 2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Рубенсовская_женщина
 3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Азербайджанский_манат
 4. <https://noblit.ru/node/1025>
 5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Гимн_Малайзии

3. **Filmni toping** (Aktyorlar va film chiqqan yil aytiladi, filmni topish kerak)
 10. Shohruhxon, Zarina Nizomiddinova, Adiz Rajabov, Ubaydulla Omon, Ra'no Zokirova. 2006-yil. Filmni toping.
 Javob: Romeo va Julietta
 20. Shohrux Xon, Rani Mukerji, Priti Zinta, Abhishek Bachchan, Amitabh Bachchan. 2006-yil. Filmni toping.
 Javob: Hech qachon alvido demang.
 30. Patrik Sueyzi, Demi Mur, Vupi Goldberg, Toni Golduin, Rik Aviles. 1990-yil. Filmni toping.
 Javob: Ruh
 40. Deniyel Dey Lyuis, Salli Fild, Devid Streteyrn, Jozef Gordon-Levitt, Jeysms Speyder. 2012-yil. Filmni toping.
 Javob: Linkoln
 50. Juliya Roberts, Albert Finni, Aaron Ekxart, Piter Koyoti, Cherri Jons. 2000-yil. Filmni toping.
 Javob: Erin Brokovich
 Manba:
 1. <https://www.youtube.com/watch?v=2mn9Am7L4sA>
 2. https://en.wikipedia.org/wiki/Kabhi_Alvida_Naa_Kehna
 3. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Привидение_\(фильм,_1990\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Привидение_(фильм,_1990))
 4. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Линкольн_\(фильм\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Линкольн_(фильм))
 5. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Эрин_Брокович_\(фильм\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Эрин_Брокович_(фильм))

4. Davlat nomlari kelib chiqish tarixi.

10. Abel Tasman USHBU DAVLATga avvaliga "Staten Landt" nomini bergan.
Qaysi davlat?

Javob: Yangi Zelandiya.

20. USHBU DAVLAT Britaniya koloniyasi bo'lgan vaqtida "Bechuanaland" deb nomlangan va mahalliy bechuana qabilasi yurti ekanini bildirib turgan. **Qaysi davlat?**

Javob: Botswana.

30. USHBU DAVLAT nomi esa slavyancha "chegara hudud", "chekka hudud" ma'nosini bildiruvchi so'zdan kelib chiqqan. **Qaysi davlat?**

Javob: Ukraina (Окраина).

40. Ushbu davlat nomi Midiya hududidagi qadimgi Atropatena davlati nomidan kelib chiqqan. Nomga asos bo'lgan "Aturpat" so'zi esa "O'tga sig'inuvchi ruhoniylar" degani. **Qaysi davlat?**

Javob: Ozarbayjon.

50. BU YER nomi arab tilida "Oy orollari" degan ma'no anglatadi. **Qaysi davlat?**

Javob: Komor orollari (Arabchada "oy" – "qamar")

Manba:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Новая_Зеландия#Этимология
 2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Ботсвана#Этимология>
 3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Украина#Происхождение_названия
 4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Азербайджан#Этимология>

5. https://en.wikipedia.org/wiki/Comoro_Islands

YARIM OCHIQ

1. BUVILAR

2. MATRITSADA KAMIDA 2 TA NOTA

3. O‘Q YOY VA KAMON

4. MEHMONXONA

1. Buvilar

10. U qattiqqo‘lligi sababli qishloqdoshlari uni “General buvi” deyishadi. Uning ismini ayting.

Javob: Anzirat

20. Uning 9 bolasi Yevropadagi turli qirollik va aslzodalar oilalari bilan turmush qurgan. Shundan keyin U “Yevropa buvisi” laqabini olgan. U kim?

Javob: [Qirolicha] Viktoriya

30. U Usmonli imperiyasi davrida “Buyuk valide” unvoniga sazovor bo‘lgan yagona ayol. U kim?

Javob: Ko‘sem [sulton]

40. 1970-yilda 24 yoshli Beverli Oliver o‘zining U ekanligini aytadi. Ammo kadrlardagi ayol 17 yoshli Beverli ekanligiga hech kim ishonmaydi. U kim?

Javob: Ledi Babushka

Izoh: Kennedi o‘limini kameraga yozib olgani aytiladigan, shaxsi aniqlanmagan ayol.

50. Uning performanslari va installyatsiyalari tashrifchilarda ba‘zan shok keltirib chiqaradi. Uning 1988-yilgi ko‘rgazmasida tomoshabinlardan biri hushidan ketib qolgandi. U kim?

Javob: Marina Abramovich

Izoh: Uni “performans san’ati buvisi” deb atashadi.

Manba:

2. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Виктория_\(королева_Великобритании\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Виктория_(королева_Великобритании))

3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Кёсем-султан>

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Леди_Бабушка

5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Абрамович,_Марина

2. Matritsada kamida 2 ta nota

10. Hozirda poytaxt hisoblanuvchi USHBU SHAHAR arxitektura yodgorliklari bilan maqtana olmaydi. Chunki bunday yodgorliklarning katta qismi Dor us-Salomda joylashgan.

Qaysi shahar?

Javob: Dodoma.

20. Ularning otasi dengiz ilohi Forkiya edi. Argonavtlarni ULARdan Orfey qutqarib qoladi. **ULARni ayting.**

Javob: Sirenalar.

30. (O‘quvchiga eslatma “midorefa” so‘zi sekin va tushunarli qilib o‘qib berilsin) Solresol tilida “midorefa” – “avval” degani. Solresol tilida **“keyin” deb ayting.**

Javob: Faredomi.

40. Nomi grekcha “issiq” so‘zidan kelib chiqqan U 1793-1806-yillarda “O‘n birinchi” bo‘lgan. **UNI ayting.**

Javob: Termidor.

50. Teofil Gotye shunday degan: “Hech kim ximeralar, daxshatli tushlar, g‘alati karikaturali siluetlar va qo‘rqinchli maxluqlarga USHBU FRANSUZdan ko‘ra yaxshiroq hayot baxsh eta olmaydi.” **Qaysi fransuz?**

Javob: Gyustav Dore.

Manba:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Додома>

2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Сирены>
3. <https://fr.wikipedia.org/wiki/Solresol>
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Thermidor>
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Gustave_Dor%C3%A9

3. O‘q yoy va kamon

10. Javob ikki so‘z. Imom g‘azzoliyning "qirq hadisi qudsiy" kitobida amalsiz olim unga o‘xshatilgan. Uni aniq ayting.

Javob: ipsiz kamon.

Qabul: o‘qsiz kamon

https://www.ravza.uz/story/buyuk_haqiqatni_anglash

<https://www.facebook.com/mehrob.uz2/posts/pfbid0k1hdxtnajnaawvlx7qozfzuxq4pnt5draijoztecgl1yrre6upqrhi8wjjitm5clel>

20. Hind eposidagi bu quroldan ilonlar yoki ilon zahri bo‘ktirilgan o‘qlar otilgan.

Javob: Morpesh paykoni

30. Hinduizmda kamondan o‘q otuvchi kamadevaning yunoniston va rimdagi muqobillarini ayting.

Javob: Eros va Amur.

Qabul: erot va kupidon.

Izoh: kamadeva bu sevgi ilohi

https://ru.wikipedia.org/wiki/orujiye_i_dospexi_v_literature#luki

40. 1881—1898 yaratilgan asarda u kamon ushlab turgan holda aks ettirilgan. U kim?

Javob: Alyosha Popovich.

Izoh: asar “uch bahodir” kartinasi edi

[https://ru.wikipedia.org/wiki/bogatyrri_\(kartina_vasnetsova\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/bogatyrri_(kartina_vasnetsova))

50. Javobda bir hil harf bilan boshlanuvchi ikki so‘z. Bu ibora– unutila boshlagan, sovigan janjal yoki bahs-munozarani qaytadan boshlash degan ma‘noni anglatadi. Bu iborani ayting.

Javob: Qo‘ramtani qo‘zg‘ash

https://www.facebook.com/abduvohid.hayit/posts/pfbid02m56brzqfj9jbv2w5lqs81thjn_jry1kbkc2tbicwk7tuaxdmxdnjsv8hnlkpnq5q3l

4. Mehmonxona

10. Koko shanel bu mehmonxonada 30 yildan ortiqroq yashagan. Den Braunning “da vinchi kodi” asarida ham aynan ushbu mehmonxona tilga olinadi. Qaysi mehmonxona.

Javob: Rits

<https://smapse.ru/8-samyh-legendarnyh-otelej-mira/#ritz-paris-v-parize-franciia>

20. “S” kategoriyadagi mehmonxonalar odatda shuncha yulduzga ega bo‘ladi. Nechta yulduzga?

Javob: ikkita

<https://ru.wikipedia.org/wiki/gostinitsa>

30. “O‘zbekiston temir-yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2019-yili Xiva shahrida barpo etilgan mehmonxona aynan shunday nomlanadi.

Javob: “Xiva Lokomotiv”

<https://kun.uz/kr/31628040>

40. Zura karuximbi 100 dan ortiq insonga o‘z uyidan boshpana berib, ularni hayotini saqlab qolishga erishgan. Shu sababli uning uyini ham u deb atash mumkin. Uni ikki so‘z bilan ayting.

Javob: Ruanda mehmonxonasi

https://ru.wikipedia.org/wiki/karuximbi_zura

50. Stokgolm aeroporti yaqinida joylashgan bu xostelda sayohatchilarga taklif qilinayotgan xonalar 4 kishigacha mo'ljallangan, deyarli barcha xonalar uchun xojatxona umumiy. Xostelda xojatxonasi xona ichida bo'lgan faqat bittagina xona mavjud.

Bu xostelni o'ziga xosligi nimada?

Javob: "Boing 747–212b" samoleti xostelga aylantirilgan

<https://www.palladaran.ru/stati/samye-neobychnye-gostinicy-mira/>

YOPIQ MAVZU

1. NAFAQAT SHOXRUH XON FILMLARI.

2. 30 DAN 40 GACHA.

3. BOLTA

4. HAMMOM

1. Nafaqat Shoxruh Xon filmlari.

10. Italiya mafiyalari haqidagi filmlar tufayli AQShda USHBU MUROJAAT SHAKLI mashxur bo'lib ketgan. **Qaysi?**

Javob: Don (2006).

20. Javobda 1 so'z. "AIK" va "Torpedo" 1, "Norvich" va "Reding" 13, "Bristol" 31, "Rostov" esa 61 raqamini ULAR uchun ajratgan. **U o'rnidagi so'zni ayting.**

Javob: Muxlis[-lar] (Qabul: Fanat. 2016).

30. 2023-yil 5-fevralda chiqqan qonundan keyin Tataristonga rahbarlik qiluvchi shaxs SHUNDAY atala boshlandi. **Qanday?**

Javob: Rais (2017)

40. Javob unli harf bilan boshlanadi. Ijtimoiy tadbirkorlarni birlashtirish va qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanuvchi Amerika tashkiloti USHBU HIND IMPERATORI sharafiga nomlangan. **Qaysi imperator?**

Javob: Ashoka (U ham Hindistonni birlashtirgan. 2011).

50. Mayyalar UNI ifodalash uchun bo'sh chig'anoqdan foydalanishgan. **UNI ayting.**

Javob: Nol (2018)

Manba: https://ru.wikipedia.org/wiki/Хан,_Шахрух#Фильмография

1. [https://en.wikipedia.org/wiki/Don_\(honorific\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Don_(honorific))

2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Закреплённые_номера_в_футболе

3. [https://civilopedia.fandom.com/ru/wiki/%D0%98%D0%BD%D0%B4%D0%B8%D1%8F_\(Civ5\)](https://civilopedia.fandom.com/ru/wiki/%D0%98%D0%BD%D0%B4%D0%B8%D1%8F_(Civ5))

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Глава_Республики_Татарстан

5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Ноль>

2. 30 dan 40 gacha.

10. ULARning ovozi, yuzi, sochlari, bo'yi ham bir xil bo'lgan va dengizdan 1 soatgagina chiqa olishgan. **ULAR kimlar?**

Javob: [Chernomor va] 33 pahlavon.

20. Anri Rivyer tomonidan yozilgan asarda Eyfel minorasining qurilish jarayoni turli tomonlardan ko'rsatilgan suratlar bilan ham bezatilgan. Asar nomi "Eyfelning BO'SHLIQ" deb nomlanadi. **Bo'shliq o'rnidagi so'zlarni ayting**

Javob: 36 ko'rinishi (Nom tanlashda Xokusayning mashxur kartinalar seriyasidan ilhomlanilgan).

30. Pushkin, Bayron, Mayakovskiy, Gaydar, Berns, Xlebnikov, Xarms va Artur Rembo UNING a'zolari sanaladi. **Uni ayting.**

Javob: 37 klub (barchalari 37 yoshda vafot etishgan).

40. Tursunxon Jafarova "Uning janubrog'ida" nomli spektaklda In Sen rolini o'ynagan. **UNI ayting.**

Javob: 38-parallel (Personaj nomi koreyscha ekani yordam berdi deb umid qilamiz).

50. 2004-yilda chiqqan rus komediyasi qahramonlari 3 qariya Yangi yil oqshomida Santa Klausdan 1 kunga yosharishni so'rashadi. Film nomiga ko'ra, o'sha kun ham eski yilga qo'shilgan. **Film nomini ayting.**

Javob: 32-dekabr.

Manba:

1. <https://dzen.ru/a/YLnOvbaAIVJhiU43>

2. <https://dzen.ru/a/YrWqLTy7VyKSZTL>
3. <https://dzen.ru/a/ZWyXZ9NSB1xi9DQq>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tursunxon_Ja%CA%BCfarova
5. [https://ru.wikipedia.org/wiki/32_декабря_\(фильм\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/32_декабря_(фильм))

3. Bolta

10. 1940-yili qotillik quroli bo'lgan bu predmet alpinistlar foydalanadigan sport inventari hisoblanadi. Bu predmetni toping.

Javob: muz boltasi.

Izoh: lev troskiy urib o'ldirilgan

<https://ru.wikipedia.org/wiki/ledorub>

20. Uning nomi yozma manbalarda ilk bor tadqiqotchi Djon Smit tomonidan 1607—1609-yillarda yaratilgan lug'atda uchraydi. Uning ayrimlarida chekishga mo'ljallangan moslamaniyam uchratish mumkin edi.

U nima?

Javob: Tomagavk. Izoh: ayrim tomagavklarning ikkinchi tomoni trubka shaklida yasalgan

<https://ru.wikipedia.org/wiki/tomagavk>

30. Javobda ikki bo'g'inli bo'lmagan so'z qatnashadi. Uni eslashicha, ilgari ko'pchilik ayollar farzandlarini uylarida dunyoga keltirishgan. U tug'ilganda shoshib qolgan otasi kindik kesish uchun doyaga qaychi o'rniga boshqa predmetni bergan. Savol: u kim?

Javob: Boltavoy Toshmatov

<https://daryo.uz/k/2023/10/31/lift-da-sahnada-tugilgan-va-kindigi-bolta-teshada-chopilgan-ozbek-shou-biznesi-vakillari-foto>

40. Ilk o'rta asrlarda bu boltadan bir qator german qabilalari bilan birga franklar ham foydalangan. Ushbu boltaning oxirgi na'munalari milodiy yettinchi asrga borib taqaladi. Bolta nomini toping

Javob: Fransiska

https://ru.wikipedia.org/wiki/franskaya_topor

50. Bu ishni qilish ilmiy tilda aksinomantiya deb ataladi. Qadimda forsliklar orasida bu ish bilan shug'ullangan kishilar haqida ma'lumotlar bor.

Javob: Bolta yordamida fol ochish

<https://ru.wikipedia.org/wiki/topor>

4. Hammom

10. Qobusnomada hammomga shunday holatda kirish tavsiya qilinmagan. Qanday holatda?

Javob: qorni to'q holatda

20. Qaysi davlatda qachonlardir qirol farmoni bilan hammomlar taqiqlangan edi?

Javob: Finlyandiya

<https://www.clubsau.ru/articles/interesnye-fakty-pro-saunu.-chast-1>

30. Bu hikoya personajlaridan biri sartarosh mixaylo bo'lib, suhbat turmushga chiqayotgan qizning ahloqini muhokama qilish bilan boshlanadi. Hikoya va uning muallifini ayting.

Javob: Chexov "Hammomda"

[https://ru.wikipedia.org/wiki/v_bane_\(rasskaz\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/v_bane_(rasskaz))

40. Uning foydalari qatorida qon aylanishini yaxshilash, mushaklardagi og'riqlarni qolishi, organizmni shlak va toksinlardan tozalash kabi holatlarni ko'rish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, undan eng ko'p eronliklar foydalanar ekan. Uni aniq ayting.

Javob: Qumli hammom

<https://www.clubsaun.ru/articles/interesnye-fakty-pro-saunu.-chast-1>

50. Bu hammomni egasi Sila Nikolayevich bo'lib, arxitektor boris freydenberg tomonidan barpo etilgan. Pushkin va tolstoy kabi ijodkorlar ham bu hammomga kelib turishgani haqida ma'lumotlar bor. Hozirgi kunda rossiyaning madaniy obyektlari qatoriga kiritilgan. Sila Nikolayevichning familiyasini ayting.

Javob: Sandunov.

Izoh: sandun hammomi haqida gap ketayotgan edi

https://ru.wikipedia.org/wiki/sandunovskiye_bani

“F” – GURUH

OCHIQ

1. SKANDINAV MIFOLOGIYASI

2. UCHUVCHILAR.

3. TEMIR-TERSAK

4. DENGIZGA ALOQADOR.

1. Skandinav mifologiyasi

10. Javob unli harf bilan boshlanadi. Versiyalardan biriga ko‘ra, u mimir qudug‘iga garov sifatida qoldirgan a‘zosi tufayli, quduq orqali boshqa dunyoni ko‘ra olar ekan, yana bir versiyaga ko‘ra ushbu quduq unga kelajakni ko‘rsatadi. U kim?

Javob: Odin.

Izoh: bir ko‘zini quduqqa garov sifatida bergani haqida versiya mavjud ekan

https://ru.wikipedia.org/wiki/istochnik_mimira

20. Ratatosk olmaxoni iggdrasil daraxtini pastki qismidayam tepa qismidayam yurishi aytiladi. Savol ratatosk olmaxonini vazifasi nima?

Javob: chopar, xabarlarni yetkazish

<https://ru.wikipedia.org/wiki/ratatosk>

30. Skandinav mifologiyasida inson taqdirini belgilaydigan uch ayol bo‘lib, birinchisi urd, keksa ayol sifatida, ikkinchisi verdandi o‘rta yoshli ayol sifatida va uchinchisi skuld yosh qiz sifatida gavdalanadi. Urd, verdandi va skuld so‘zlari o‘zbek tilida qanday ma‘no bildirishini toping.

Javob: o‘tmish, hozir va kelajak

<https://ru.wikipedia.org/wiki/%d0%9d%d0%be%d1%80%d0%bd%d1%8b>

40. Skandinav mifologiyasidagi dain, dvalin, duneyri durator nomli kiyiklar versiyalardan biriga ko‘ra, yil fasllarini ifodalashsa, boshqa bir versiyada shamollarni, oy fazalarini ifodalashi ta’kidlanadi. Asosiy versiyaga ko‘ra ular nimalarni ifodalashini ayting.

Javob: to‘rtta unurni

<https://ru.wikipedia.org/wiki/iggdrasil>

50. Mifologiyaga ko‘ra xeymdall gyallaxorn orqali bu ishni qilganida oxirzamon sodir bo‘ladi. Nima ish qilganida?

Javob: sur chalganida.

Gyallaxorn bu oltin shox.

<https://ru.wikipedia.org/wiki/gyallaxorn>

2. Uchuvchilar.

10. Bir forumda USHBU PERSONAJning kasblari orasida qutqaruvchilik ham sanab o‘tilgan. Uning uyi esa “Shahar parkidagi daraxt” deb belgilangan. **Qaysi personaj?**

Javob: Gayka. (Qabul: Gadget Hackwrench)

20. 1989-yilda El Xaynes boshqaruvidagi samolyotning dvigatellari ishlamay qolgani tufayli u Su-Siti shahriga qo‘nishga majbur bo‘lgan. Oradan 20 yil o‘tgach u BU YERDA bo‘lgan voqeadan keyin uchuvchilarni qo‘llab-quvvatlagan. **Qayerda?**

Javob: Gudzon.

30. Qozoq uchuvchisi Jakipbek Maldibayev 1938-yilda USHBU DAVLATga internatsional jangchi sifatida ketayotganidan halok bo‘lgan. **Qaysi davlat?**

Javob: Ispaniya (O‘sha yillarda u yoqda fuqarolik urushi ketayotgan edi)

40. Savol matnida 1 harf 2 harf o‘rnida qo‘llangan. Hech qachon samolyot, kosmik kema yoki boshqa apparatda uchmagan bo‘lsa-da, Muren aeroporti ro‘parasida “Mo‘g‘ul Iksi” nomi bilan mashhur Xaynzangiyn Gelenxuga haykal o‘rnatilgan. **Gelenxuning qanday uchganini o‘ylab topingda, so‘zni asl holida ayting.**

Javob: Ikar (U o‘zi yasagan qanotlar yordamida uchgan yarim afsonaviy shaxs).

50. U o'z mamlakatidagi ilk ayol uchuvchilardan biri bo'lgan Badriya Taxir Gyokmenning ustoz bo'lgan U kim?

Javob: [Vejixi] Xyurkush (ilk turk uchuvchilaridan biri).

Manba:

1. https://disney.fandom.com/wiki/Gadget_Hackwrench#cite_note-1

2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Хайнес,_Эл

3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Малдыбаев,_Жакыпбек

4. https://cyclowiki.org/wiki/Хайнзангийн_Гэлэнху

5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Хюркүш,_Велжихи

Muallif: Bobur Maksimov

3. Temir-tersak

10. Qadimgi grek tilidan “shaxta”, “konchi” deb ayting.

Javob: metal

<https://ru.wikipedia.org/wiki/металл>

20. Xo'jalik faoliyatida metallolomni uchga bo'lishadi. Bular qora lom, ya'ni qora metallar, rangli lom ya'ni rangli metallar va shunday lom. Shunday qanday?

Javob: qimmatbaho lom,

Qabul: qimmatbaho metallar

<https://ru.wikipedia.org/wiki/металлом>

30. 1930-1934-yillarda yaratilgan u Pavel Korchaginning fuqarolar urushi va undan keyingi urushlardagi ishtiroki, olgan tan jarohatlari natijasida yanada kuchli bo'lishi haqida hikoya qiladi. Uni uch so'z bilan ayting.

Javob: “po'lat qanday toblanadi?”.

Izoh: nikolay ostrovskiyning romani haqiga gap ketayotgan edi.

https://ru.wikipedia.org/wiki/как_заклялся_стал

40. Davom etamiz. Savolda ikki so'z almashtirilgan. Aslida Aziza ikkinchi darajali qaxramon bo'lsada, asarda unga nisbatan “sovuqda muzlamaydi, issiqda aynimaydi, asal aynimas” deya ta'rif berilgan. Savol: asal aynimas so'zlari bilan almashtirilgan ikki so'zni toping.

Javob: Oltin zanglamas.

Izoh: asarning bosh qaxramoni sodiq ismli o'qituvchi bo'ladi. “oltin zanglamas” iborasi sodiq qilgan oliyjanob ishlar uchun unga nisbatan aytilgan.

https://uz.wikipedia.org/wiki/oltin_zanglamas

50. Ma'lumotlarga ko'ra, uni yaratuvchisi afinalik misgar Perilay bo'lgan. Uni ikki so'z bilan ayting.

Javob: mis buqa.

Qabul: falaris buqasi.

Izoh: jazo uchun o'ylab topilgan mis korpusli buqa. Ichiga tirik odamni qamab tagidan olov yoqishgan.

https://ru.wikipedia.org/wiki/бык_фаларис

4. Dengizga aloqador.

10. 2017-yilda Marchin Sauter tomonidan suratga olingan hujjatli filmda umidlari so'ngan Jalanash qishlog'i haqida hikoya qilinadi. Jalanash – UNING yaqinidagi qishloqlardan biri. **Uni ayting.**

Javob: Orol dengizi.

20. Javobda 2 so'z. XVI asrda Karib bo'ylab ispan kemalarini iskab topish va yo'q qilish bilan shug'ullangan qaroqchilar “Yelizavetta ALFALARI” nomi bilan tanilgan. Biz

bilgan ALFALAR orasida esa Lo, Roki, Chiko va boshqalar bor. ALFALAR o'rnidagi 2 so'zni ayting.

Javob: Dengiz itlari.

30. Orif Tolibning yozishicha, UNING o'zbekcha nomlanishi aslida xató. Chunki dengiz qit'alar orasida joylashgan, qit'alar dengiz orasida emas. **UNI ayting?**

Javob: O'rtayer dengizi.

40. "Simpsonlar" seriyalaridan birida Uning ismi biroz o'zgartiriladi va rus versiyasida "Bartning o'g'li" degan ma'no anglata boshlaydi. **U kim?**

Javob: Sinbad (Ism "Sinbart"ga o'zgartirilgan)

50. Javobda 2 so'z. Serial syujeti shunday: 2075-yil. Yerdan suv tugagan. Shu tufayli bir guruh koreys olimlari U yerdan suv olib kelish uchun yo'l oladi. **Qayerdan?**

Javob: Osoyishtalik dengizi (Qabul: "Tinchlik dengizi", «Море Спокойствия», "The Silent Sea")

Manba:

1. <https://www.kinopoisk.ru/film/1115338/>
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Elizabethan_Sea_Dogs
<https://www.kinopoisk.ru/series/798124/>
3. <https://t.me/oriftolib/1651>
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Sinbad_the_Sailor
5. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Море_Спокойствия_\(телесериал\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Море_Спокойствия_(телесериал))

YARIM OCHIQ

1. TAQUR-TUQUR, TARAQA-TURUQ

2. QASR

3. MUZEY

4. -ZZ-

1. Taqur-tuqur, taraqa-turuq

10. Cho'l va chala cho'l zonalarida loyutuproqdan tarkib topgan va vaqti-vaqti bilan suv bosadigan gilli yalang pastliklar. Yomg'irli mavsumda yuzasi yupqa suv bilan qoplanib, suv bug'lanib ketgach, yer yuzasi yorilib, o'simlik o'smaydigan joyga aylanadi. Bunday hudud nomini toping.

Javob: Taqir

<https://uz.wikipedia.org/wiki/taqir>

20. Xx asrning 60 yillarida londonda tashkil topgan bu submadaniyat vakillari orasida neonatsistlar guruhlar ham mavjud. Bu guruhni mavzuimizga moslab ayting.

Javob: taqirboshlar

Qabul: taqirbosh skinxedlar

<https://ru.wikipedia.org/wiki/skinxed> <https://uz.wikipedia.org/wiki/skinhead>

30. Taraqa turuq so'zi uch marta uchraydigan Salomat Vafoning hikoyasida "oppoq borliqni ikkiga ayirish" jumlasini uchratish mumkin. Savol: hikoya voqealari qayerda bo'lib o'tishini toping.

Javob: poyezdda.

Izoh: hikoya nomi ham poyezd

https://www.nurzamon.uz/article_view.php?id=155

40. Xx asrning 50-yillarini so'ngida amalga oshirilgan 15 daqiqalik taqur-tuqur, taraqa-turuq bu mamlakat uchun fojeali bo'lgan va millionlab insonlarning ocharchilikdan o'limiga olib kelgan. Qaysi mamlakat haqida gap ketmoqda?

Javob: Xitoy.

Izoh: chumchuqlarga qarshi, ular yerga yoki daraxtlarga qo'nmasligi uchun shovqin-suron bilan kurash olib borilgan. Aksariyat aholi cho'mich, kamgir kabi ro'zg'or buyumlari bilan kstryulkalarni urib shovqin chiqarishgan

https://ru.wikipedia.org/wiki/unichtojeniye_vorobyov

50. Topishmoqni javobini toping. Kasbi doim taqir-tuqur, qayda ilon ko'rsa cho'qir.

Javob: laylak

<https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-topishmoqlari/parranda-va-ushlar/>

[r/](#)

2. Qasr

10. Fransa kafkaning tugallanmagan asari va ushbu asar asosida 1997-yili Mixael xaneke tomonidan suratga olingan film mavzuimizga mos keladi. Asar nomini bir so'zda toping.

Javob: Qasr

[https://ru.wikipedia.org/wiki/zamok_\(roman\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/zamok_(roman))

[https://ru.wikipedia.org/wiki/zamok_\(film,_1997\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/zamok_(film,_1997))

20. Tojikiston respublikasi prezidentining rasmiy qarorgohi shunday ataladi.

Javob: Qasri millat

https://tg.wikipedia.org/wiki/qasri_millat

30. O'rta asrlarda yevropada qurilgan qaslarning eng zaif joyi shu qismi hisoblangan.

Javob: darvozasi

<https://www.techinsider.ru/technologies/357782-9-maloizvestnykh-faktov-o-srednevekovykh-zamkakh/>

40. Berkshir grafligida joylashgan bu qasr hozirgi kunda ginnestning rekordlar kitobiga yer yuzidagi eng katta qasr sifatida kiritilgan.

Javob: Vindzorlar qasri

<https://www.atorus.ru/tourist/top10/article/3743.html>

<https://www.techinsider.ru/technologies/357782-9-maloizvestnykh-faktov-o-srednevek-ovykh-zamkakh/>

50. Buxoro viloyati, kongan tumanidagi bahouddin naqshband me'moriy majmuasidagi minora shu nomga ega.

Javob: Qasri Orifon minorasi

https://uz.wikipedia.org/wiki/qasri_orifon_minorasi

3. Muzey.

10. Litvadagi dub daraxtida joylashgan "Baublis" muzeyi eng SHUNDAY muzey hisoblanadi. **Qanday?**

Javob: Kichik.

20. Rossiyaning Mishkin shahrida ULAR ko'rinishidagi 10 minglab suvenirlar saqlanadigan muzey bor. **ULAR nima?**

Javob: Sichqonlar.

30. 2022-yilda arxeolog Tigran Mkrtichev Mizdaxkon yodgorligida UNING filialini ochish tashabbusini ilgari surdi. **Uni ayting.**

Javob: Savitskiy muzeyi.

40. Hozirgi kunda USHBU MUZEY "Unian Madeyra" bolalar klubi homiysi hisoblanadi. **Qaysi muzey?**

Javob: Krishtiano Ronaldo muzeyi. (Madeyra, futbol...)

50. AQShning Atlanta shahrida joylashgan muzeyning markazida mashhur sir saqlanadigan kapsula ham joylashtirilgan. **Bu qanday muzey?**

Javob: Koka-kola muzeyi.

Manba:

1-2. <https://archidom.ru/journal/kultpokhod/20-interesting-facts-about-the-museums/>

3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Мкртычев,_Тигран_Константинович

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Музей_Криштиана_Роналду

5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Мир_«Кока-кола»

4. -Zz-

10. 1959-yili suratga olingan "Furqat" filmida Beruniy rolini ushbu aktyor yaratgan. **Qaysi aktyor?**

Javob: Razzoq Hamroyev

https://ru.wikipedia.org/wiki/xamrayev,razzak_xamroboyevich

20. Qoidaga ko'ra, bu vazifani mast, aqli noraso kishilar va ayollar bajarishi mumkin emas. Nogiron bo'lsa maqsadga muvofiq. Kimni vazifasini bajarish haqida gap ketmoqda.

Javob: Muazzin

<https://uz.wikipedia.org/wiki/muazzin>

30. Ip yigiruvchi oilasida tug'ilgan bu shaxs faylasuflarni maqsadlari, faylasuflarni rad etish haqida yozgan. Bu shaxsni fikricha, xudoni aql orqali anglash mumkin emas, uni maxsus ruhiy, jismoniy harakatlar — sig'inish va ibodatlar orqali anglash mumkin.

Javob: G'azzoliy.

Izoh: G'azzol ip yigiruvchi degani

<https://uz.wikipedia.org/wiki/g%ca%bbazzoliy>

40. Unga 1880-yili italyan-fransuz sayoxatchisi Pyer savornyan de Brazza tomonidan asos solingan bo‘lib, 1960-yili asosiy maqomga erishdi. Uni ayting.

Javob: Brazzavil shahri.

Izoh: 1960-yili kongoning poytaxtiga aylangan. De brazza sharafiga brazzavil ya’ni brazza shahri deb nomlangan.

<https://ru.wikipedia.org/wiki/brazzavil>

50. U inson ham emas, hayvon ham emas. Hatto predmet ham emas. Balki axborot texnologiyalarining mahsuloti. O‘zi ko‘k, qizil krassovkada. 90 yillarning o‘rtalarida millionlab insonlar u bilan tanishdi. Uni ayting.

Javob: Izzi.

Izoh: 1996-yilgi atlanta olimpiadasini talismani

<https://olympics.com/ru/olympic-games/atlanta-1996/mascot>

YOPIQ MAVZU

1. QUSH

2. TURLI DAVLAT GENRILARI.

3. NOGIRON YOKI JISMONIY NUQSONI BOR RASSOMLAR

4. QISHLOQ

1. Qush

10. Qushlarning tumshug'iga qarab ular haqida muhim ma'lumotni bilib olish mumkin. Qanday ma'lumotni?

Javob: nima bilan oziqlanishini.

Izoh: masalan baliq bilan oziqlanadigan qush bilan don bilan oziqlanadigan qushni tumshug'i har-hil bo'ladi

<https://ru.wikipedia.org/wiki/ptisy>

20. O'z boshpanasini topib borish vazifasi qo'yiladigan bu poygada aynan ular ishtirok etadi. Shu sababli bu norasmiy sport turi ular poygasi deb nomlanadi. Ularni toping.

Javob: kabutarlar.

Izoh: huddi xat tashigandek o'z manzillarini adashmasdan topib borishlari lozim

https://ru.wikipedia.org/wiki/golubinye_gonki

30. Afsonaga ko'ra, qizlari o'g'irlab ketilgan onaning ko'z yoshlaridan u paydo bo'lgan. U 1876-yili yaratilgan.

Uni ayting.

Javob: oqqush ko'li. Izoh: pyotr chaykovskiyning baleti.

https://ru.wikipedia.org/wiki/lebedinoye_ozero

